



LUIZA ERDRIKNING “ANTILOPA AYOL” ROMANIDA MO’JIZAVIY REALIZM ELEMENTLARINING AKS ETISHI

Muallif: Muxammedova Nilufar Eliboyevna¹

Affiliyatsiya: PhD., dotsent, O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15201988>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Amerika hindu adibasi Luiza Erdrikning “Antilopa ayol” romanida uchraydigan mo’jizaviy realizm elementlarini tahlil qiladi. Yozuvchi romanda Amerika hindularining Ojibve qabilasi afsonalariga asoslangan holda yangi avlod uchun o’tmishning ahamiyati haqida so’z yuritadi. Asarda Ojibve miflari qahramonlari xususiyatlarida mo’jizaviy realizm elementlarining yangi shakllari yaratiladi.

Kalit so’zlar: mif, hindu qabilalari, antilopa, ayol, element, xususiyat, roman, janr

Amerika hindular adabiyotida mo’jizaviy realizm mo’jizaviy va oddiy hayotni uyg'unlashtira oladigan ijodiy metod bo‘lib, unda ma’naviy va moddiy olam bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo‘lgan mahalliy xalq dunyoqarashini aks ettiradi. G’arb adabiy an'analarida afsona va haqiqat ko‘pincha bir-biridan ajratilgan bo‘lsa, Amerika hindular adabiyotida roviylik an'anasi o’tmish va hozirgi zamon, inson va hayvon, tush va real hayot o’rtasidagi chegaralarni buzib yuboradi va shu bilan birga ularni o’zaro bog’laydi ham. Bu yondashuv Amerika hindu ijodkorlariga shaxsiyat, milliy uyg'onish va madaniyat mavzularini o’rganish imkonini berib, xalq og’zaki an'analar va ajodolarning adabiy merosiga hurmat bajo keltirishni ifodalaydi. [1:45] O’z asarlariga tashqi ko‘rinishini o’zgartira oladigan mavjudotlar, bashoratli tushlar va inson hayotiga ta’sir qiluvchi ruhlar kabi g’ayritabiyl elementlarni singdirish orqali yozuvchilar tarix va afsona mavjud bol’gan adabiy makonni yaratadilar. Taniqli Amerika hindu yozuvchi Luiza Erdrik (1954-yilda tug’ilgan) “Antilopa ayol” (1998) romanida mo’jizaviy realizmdan foydalangan holda Ojibve mifologiyasi va ramzlarda hindu qabilalarining qonli ot’mishini zamonaviy hikoya uslubida ifodalaydi.

Luiza Erdrikning “Antilopa ayol” romanida mo’jizaviy realizm elementlari ma’naviy va moddiy olam o’rtasida bog’lovchi ip vazifasini o’taydi. [2:89] Mazkur yozndashuv adibaga inson shaxsi, taqdiri va o’tmishi hozirgi zamonni anglashda naqadar muhim ekanligini tushunishga imkon beradi. Mazkur maqola Luiza Erdrikning “Antilopa ayol” romanida mo’jizaviy realizm elementlarining Amerika hindulari o’tmishini tasvirlashdagi ifodasini e’tibor qaratadi.

Adibaning romanda qo’llagan mo’jizaviy realizm elementalining birinchisi – antilopa ayol bo‘lib, u mifologik qahramon sifatida namoyon bo‘ladi va asar sarlavhasini ifodalaydi. Romanning asosiy qahramoni – sehrli qobiliyat egasi bolgan Swithart Kaliko.

U "antilopa ayol" sifatida tasvirlangan, ya'ni insoniy hamda g'ayritabiyy kuchga ega mavjudotdir. Unga hech bir inson to'liq egalik qilishi ham mumkin emas. U o'zida Ojibve mifologiyasidagi sirli va yovvoyi antilopa qiz obrazini mujassam etadi. [3:79] Ojibve mifologiyasidagi afsonalar Amerika hindularining an'anaviy hikoyalari dagi kabi, inson va hayvon o'rtasidagi o'zgarishlarni ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan haqiqat sifatida aks ettiradi. Swithart Kaliko'ning oq tanli askar Skranton Roy tomonidan asir olinishi qadimiy rivoyatlarga yodga soladi, bu rivoyatlarda erkaklar hayvonlar yoki ruhlar olamidan kelgan mistik ayollarga uylanadi, ammo ularni tushunish yoki boshqarish qiyin bo'ladi. Uning antilopa bilan bog'liqligi tabiat, ozodlik va ruhiy dunyo bilan aloqani bildiradi, bu esa Amerika hindulari hikoyachiligidagi asosiy mavzularidan biridir. [5:83]

Romanda Swithart Kaliko hindular o'tmishini, madaniy va ma'naviy olamini ifoda etadigan va zamonaviy hindularga ularning kimligini yodga sola oladigan mifologik qahramon sifatida tasvirlanadi. U antilopa bilan bog'liq bo'lib, bu muqaddas hayvon yovvoyi va g'ayritabiyy mavjudot sifatida talqin qilinadi. Uning kelib chiqishi sir-sinoatlarga burkangan bo'lib, u atrofidagilar, ayniqsa, uni zo'rlik bilan o'ziga xotin qilgan Skranton Roy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Hindular mifologiyasidagi qahramonlar kabi, u erkinlik tarafdir. Shu bilan birga bu qahramon insoniy va g'ayritabiyy xususiyatlarni o'zida birlashtira olgan ayoldir. Uning Ojibve afsonalari bilan bog'liqligi va oxir-oqibat tabiat qo'yniga qaytishi uni boshqarib bo'lmaydigan mavjudot ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Swithart Kalikoning mifologik kelib chiqishi uni antilopa bilan bog'liqligini ifodalaydi. U nafaqat inson qiyofasidagi qahramon, balki o'zida tabiatning yovvoyi va o'zgaruvchan ruhini mujassam etgan mavjudotdir. Antilopa Amerika hindulari miflarida ko'pincha ma'naviy erkinlik timsoli sifatida tasvirlanadi va Swithart Kalikoning unga bo'lgan bog'liqligi uning mifologik mavjudot ekanligini tasdiqlaydi.

Swithart Kaliko obrazining mifologik ildizlari Amerika hindulari madaniyatdagi "hayvon qiyofasidagi ayol" haqidagi afsonaga asoslanadi. Romanda Skranton Roy Swithart Kalikoni xuddi qadimiy rivoyatlardagi kabi asir qiladi, bu hikoyalarda erkaklar hayvonlar yoki ruhlar olamidan kelgan sirli ayollarga uylanadi. Bunday an'anaviy hikoyalarda, asir qilingan ayolni hech qachon to'liq egallab bo'lmaydi, u har doim sir saqlaydi va uy-ro'zg'or hayotiga moslashishdan bosh tortadi. Bu Amerika hindulari folklorida tez-tez uchraydigan g'oyani aks ettiradi, ya'ni g'ayritabiyy mavjudotlarni inson istaklari orqali boshqarib bo'lmaydi.

Mifologik qahramon sifatida Swithart Kalikoda g'ayritabiyy kuch bor. Roman voqealari davomida u atrofdagilarga g'alati, deyarli sehrli ta'sir o'tkazadi. U Roy oilasining hayotini izdan chiqaradi. Uning borligi ham sevgi-muhabbatni, ham betartib hayotni olib keladi va mifologik mavjudotlar inson hayotini kutilmagan darajada o'zgartirishi mumkinligini namoyish etadi. Natijada, Swithart Kaliko hindu ayoli zimmasiga yuklangan vazifalarni bajara olmaydi va hindu ayoli hayot tarziga ham moslasha olmaydi, u o'z ozodligini, erkin hayotni qumsaydi. Uning oxir-oqibat yovvoyi tabiatga qaytishi ko'plab afsonalarda uchraydigan mavzuni takrorlaydi, ya'ni g'ayritabiyy mavjudotlar o'z haqiqiy olamiga qaytishi kerak. Bu esa uning inson to'liq tushunib bo'lmaydigan yoki boshqarib bo'lmaydigan mifologik qahramon sifatidagi mavqeini aks ettiradi.

Roman doimiy ravishda haqiqat va afsona o'rtasidagi chegaralarga barham beradi va Amerika hindulari dunyoqarashidagi ma'naviy va moddiy olamning ajralmas ekanligini ifodalaydi. Qahramonlar vahiyalar, tushlar va ajdodlarning ovozlari orgali yo'l-yo'rirq oladilar. Davr bir xil emas, aksincha, o'tmish va hozirgi zamon bir-biriga aralashib ketmoqda. Ajdodlar va hayvon ruhlari qahramonlarning hayotiga ta'sir o'tkazadi, mo'jizaviy itlarning paydo bo'lishi kabi sirli voqealar sodir bo'ladi. Luiza Erdrik hayvonlardan ramz sifatida foydalanadi, ular yo'l-yo'rirq yoki o'zgarishning timsoli sifatida tasvirlanadi. Itlar ayniqsa muhim ma'naviy elchilar sifatida talqin qilinadi, masalan, vaqt bo'y lab sayohat qilib, avlodlarni bog'lab turuvchi itlar obrazi yaratiladi. Antilopa esa erkinlik, ayol va yovvoyi ruh timsolidir, bu barcha xususiyatlar Swithart Kaliko obrazida mohirona tarzda mujassamlangan.

Luiza Erdrikning hikoya uslubi uning Ojibve qabilasi hikoyachilik an'analariga asoslanadi, roman ichida mo'jizaviy elementlar paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Roviylik an'anasi romanda muhim rol o'ynaydi va hikoyalarda sehrli kuch ko'zga tashlanadi. Qahramonlar hikoyalarni qayta aytib, ularni o'zgartiradilar, bu esa afsona va haqiqat bir-birini qanday to'ldirishini namoyon etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, "Antilopa ayol" romani mo'jizaviy realizm orqali G'arb adabiyotidagi haqiqat va davr tushunchalarini inkor etadi. Roman afsona, ajdodlar hayoti va kundalik hayot bir biriga chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. L.Erdrik Ojibve folklori va mo'jizaviy realizm elementlaridan samarali foydalangan holda yaratgan asarida o'tmishning hozirgi zamon Amerika hindulari uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allen P.G. Off the Reservation: Reflections on the Boundary-Busting, Border Crossing Loose Canons. Boston: Beacon Press, 1998.
2. Allen P.G. The Sacred Hoop: Recovering the Feminine in American Indian Traditions. Boston: Beacon Press, 1992.
3. Erdrich L. The Antelope Wife. New York: Harper Flamingo, 1998.
4. Horne D. Contemporary American Indian Writing: Unsettling Literature. New York: Peter Lang, 1999.
5. Vizenor G. Manifest Manners: Narratives on Postmodern Survivance. Hanover, MA: University Press of New England, 1994.